

## **SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

*Odilova Dilbar O'sarjon qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya mutaxasisligi*

*1-bosqich magstranti*

**Annotatsiya:** Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv – tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobjiy qobilyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari, vositalarini ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Dars, ta'lif, sinfdan tashqari ishlar, metod, shakl, vosita

### **KIRISH**

Sinflarda sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bosh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligani oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning oziga xosligi shundaki, togarak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar osmir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar muktab ta'lif-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bosh vaqtlarini yo'lga qo'yish formalaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashgulotlarni tanlab olishadi a ulard mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiysi xalq ta'lifi vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'zo'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan xonalarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'lifning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnomalar adabiyotlari laboratoriya uskunalar, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlarning ta'lifi ahamiyati – o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va konikmalar berish. Tarbiyaviy

ahamiyati – o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bolishi, xalq xojaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bolgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish togrisida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Sinfdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamонавији и qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yonaltirilgan.

Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejorashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri kop darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yilganligiga bogliqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham kop qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejorashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.
2. O'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qoyish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosa rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.
4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirarda qatnashish.

5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini korish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va mamuriy.

Boshlang'ich sinflarni sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishni matematika darslari misolida ko'rib chiqamiz.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlar deyilganda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtida tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik prinsipiiga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi.

O'z mazmuni bo'yicha u davlat dasturi bilan cheklanmagan. Ammo matematik material o'quvchilarning bilimlari va malakalariga mos ravishda bo'lishi kerak. Sinfdan tashqari mashg'ulot ixtiyoriylik prinstipi asosida quriladi. Darslar 45 minutga rejalashtirilgani holda sinfdan tashqari mashg'ulotlar mazmuniga va o'tkazilish formalariga qarab 10-12 minutga ham, 1 soatga ham mo'ljallangan bo'lishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar shakl va turlarining ko'p xilligiga qarab mazmunining turli tumanligi bilan xarakterlanadi. Maktab amaliyotida matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ushbu turlari uchraydi: matematik o'n minutliklar, soatliklar va qiziqarli matematika kechalari, matematika to'garaklari, ertaliklari, viktorinalar, konkurslar, olimpiadalar. Shuningdek, sinfdan tashqari ishga matematikadan gazeta chiqarish, matematika burchaklarini rasmiylashtirishlar ham kiradi.

Oldin 1-sinfda sinfdan tashqari ishlar qanday tashkil qilinishi va o'tkazilishini qarab chiqamiz. Bu sinfda sistemali ishning asosini matematik o'n minutliklar tashkil qiladi. Odatda, o'n minutliklar haftasiga bir marta butun sinf bilan o'tkaziladi. O'n minutliklardagi mashg'ulotlar sinf chegarasidan tashqariga chiqishi juda muhimdir.

Topshiriqlar darslarda beriladigan oddiy matemetik topshiriqlarga o'xshash bo'lmasligi kerak: topshiriqlarning mazmunlari bolalarga tushunarli qiyinlik darajalari bolalarga mos bo'lishi kerak: javoblar tez topilishi kerak, agar hisoblashlar zarur bo'lsa, ular faqat og'zaki bajarilishi kerak.

Qiziqarli matematika soati darsdan keyin sinfning hamma o'quvchilari bilan o'tkaziladi. 1-sinfda bu mashg'ulotlar epizodik ravishda o'tkaziladi. 2-3sinflarda sistemali ravishda (ammo oyiga 1-2 martadan ko'pmas ) o'tkaziladi, chunki ularni o'tkazishga ko'p vaqt talab qilinadi. Mashg'ulotning davomiyligi 1sinfda 20-25 minut, 2-sinfda 25-35 minut 3-sinfda 35-40 minut, 4-sinfda 40-45 minut. Mashg'ulot o'tkazish uchun har hil qiziqarli arifmetik va geometrik mazmunli masalalar, qiyinroq masalalar, hazil masalalar, masalalar tuzishga doir masalalar, qiziqarli kvadratlar, rebuslar, topishmoqlar va boshqalar material bo'lib hizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, boshlang'ich sinf matematika darslarida sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilimlari, va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirishga, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini,

topqirliklarini, matematik ziyrakligini oshirishga, matematikaga qiziqishini orttirishga, qobilyatli, jamoatchilikni tarbiyalashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Matnazarova K.O “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” darslik Toshkent 2014
2. Munavvarov A.K. «Oila pedagogikasi». – T.: O’qituvchi, 1994, – 112 b. 3.  
Mirqosimov M. “Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari”. T.: 1996  
y. 15.
3. Abduhodirov A.A va boshq. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. Iste’dod  
jamg’armasi, 2008, - 45 b 5. Jo’rayev A. “Tarbiyaviy darslar o’tish”. – T.:  
O’qituvchi - 2010